ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 140 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi....14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari....20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi....25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi....30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati....33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv....39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari....44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari....48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies....52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari....55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida....59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni....65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi

Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri....68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari....72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida....76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini....81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari....86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri....90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish....96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni....100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati....105
Murodova Madina Karim qizi

Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari....108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga tatbiq etish ....... 110
**Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna**

O‘zbekistonda ta’lim sohasi bo‘yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari ....... 115
**Quronboyeva Mavluda Bahodirovna**

Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika ....... 120
**Sidiqova Yulduz Sobirovna**

6-sinf o‘quvchilarida matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi ....... 123
**Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi**

Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ....... 128
**Yusupov Ulug‘bek Kadirovich**

Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchi ma’naviy kamolotini ta’minlashda motivatsiya uyg‘otish texnologiyalarini takomillashtirish ....... 132
**F. Zaynabuddinov**

Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза ....... 135
**Киреева Эльвина Фларитовна**

# BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVISTIK VA LINGVOMETODIK TALQINI

Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti,
Filologiya kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shakllantirish va uni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Leksik kompetensiya xorijiy til o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin egallaydi. Maqolada lingvistik va lingvometodik yondashuvlar asosida leksik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali usullar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** leksik kompetensiya, ingliz tili o'qituvchisi, lingvistik talqin, lingvometodik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, chet tili o'qitish.

**Abstract:** This article examines the issues of developing and improving lexical competence in prospective English language teachers. Lexical competence plays a vital role in the professional preparation of foreign language instructors. The article analyzes effective strategies for developing lexical knowledge and skills based on linguistic and linguo-methodological approaches.

**Key words:** lexical competence, English language teacher, linguistic interpretation, linguo-methodological approach, professional training, foreign language teaching.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы формирования и совершенствования лексической компетенции будущих преподавателей английского языка. Лексическая компетенция играет важную роль в профессиональной подготовке преподавателей иностранных языков. В работе проанализированы эффективные методы развития лексических знаний и навыков на основе лингвистического и лингводидактического подходов.

**Ключевые слова:** лексическая компетенция, преподаватель английского языка, лингвистическая интерпретация, лингводидактический подход, профессиональная подготовка, обучение иностранным языкам.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy islohotlar ta'lim–tarbiya sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Prezident qarorlarida ta'lim mazmunini zamon talablari asosida yangilash, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Bunday sharoitda chet tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning til kompetensiyasini chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Leksik kompetensiya til o'rganuvchining lug'aviy boylikdan to'g'ri va samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya tilshunoslikda tilning semantik, morfologik va stilistik jihatlarini qamrab oladi. Leksik kompetensiyaga ega bo'lgan shaxs nafaqat so'zlarni biladi, balki ularni mantiqan bog'laydi, to'g'ri kontekstdan foydalanadi va nutqining mazmunini to'liq yetkazadi.

Lingvistik nuqtai nazardan qaralganda, leksik kompetensiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: faol va passiv lug'at boyligi, sinonimiya va antonimiya bilan ishlash, kollokatsiyalarni to'g'ri qo'llash, frazeologik birliklardan o'rinli foydalanish, shuningdek, stilistik moslikni ta'minlash. Bu esa o'rganuvchidan chuqur til sezgirligini va doimiy amaliyotni talab qiladi.

Lingvometodik yondashuv esa tilshunoslik va didaktika oʻzaro uygʻunlashgan holda qoʻllanadigan metodik yondashuv boʻlib, unda nazariy bilimlar amaliy mashgʻulotlar bilan mustahkamlanadi. Boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishda quyidagi metodik yondashuvlar muhim oʻrin tutadi:

- Kontekstual yondashuv – soʻz va iboralar real hayotiy vaziyatlar orqali oʻzlashtiriladi;
- Tematik yondashuv – maʼlum mavzular asosida lugʻaviy boylik shakllantiriladi;
- Kommunikativ metodlar – dialog, munozara, rolli oʻyinlar orqali soʻzlar faol nutqda qoʻllaniladi.

Zamonaviy oʻquv vositalari ham leksik kompetensiyani rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, elektron lugʻatlar, til korpuslari (COCA, BNC), mobil ilovalar (Quizlet, Anki) hamda interaktiv platformalar (Moodle, Edmodo) yordamida oʻrganuvchilar oʻz lugʻaviy bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishi mumkin.

Oʻzbekiston sharoitida CEFR – Umumiy Yevropa til kompetensiyasi doirasi – asosida ishlab chiqilgan milliy dasturlar til oʻrgatishda muhim asos boʻlib xizmat qilmoqda. Har bir daraja uchun zarur boʻlgan soʻz boyligi, kommunikativ topshiriqlar va oʻqituvchining metodik yondashuvi aniq belgilangan. Bu esa boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilari uchun lugʻaviy salohiyatni samarali shakllantirish va uni amaliyotda qoʻllash imkoniyatini yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boʻlajak ingliz tili oʻqituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirish lingvistik bilimlar bilan metodik yondashuvlar uygʻunligida amalga oshirilishi zarur. Bu esa nafaqat ularning tilni chuqur egallashiga, balki professional faoliyatda erkin va samarali muloqot olib borishiga xizmat qiladi. BIOʻ uchun ingliz tilidan yaratilgan oʻquv dasturda oʻquvchilar quyidagilarni oʻzlashtirishlari dasturiy talablar sifatida koʻrsatib oʻtilgan:

- oʻquv–intellektual koʻnikma va malakalar hisoblangan tinglab tushunish, oʻqish jarayonida til hodisa va faktlari oʻrtasida sabab–oqibat aloqalarini oʻrnata olish, ushbu hodisa va faktlarni oʻzaro farqlash, umumlashtirish hamda xulosalar qila olish;
- tinglangan va oʻqib idrok etilgan axborotlarni asosiy va ikkinchi darajalarga ajrata olish, ulardan amaliyot (kundalik hayot)da foydalana olish, matnlardagi shartli belgilar, noverbal vositalar – chizma, diagramma, tasvir va simvollarni tushuna olish;
- oʻquv–kommunikativ muloqot jarayonida qatnasha olish, ogʻzaki ifoda etilgan fikrlarni, oʻqilgan tezis, referat kabilarni tushuna olish, reja tuza olish va h.k.

Oliy taʼlimlarda taʼlimni modernizatsiyalashni amalga oshirishda bilim, koʻnikma va malakalarni egalashning asosi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan oʻqitish alohida oʻrin tutadi.

Tadqiqotlarda "kompetensiya, kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, til kompetensiyasi va nutqiy kompetensiya" tushunchalari haqida batafsil fikr va mulohazalar bayon qilingan.[1]

Taʼlim sohasidagi "kompetensiyaviy yondashuv"ni yaratish masalalari 1922-yilda E. Fora rahbarligidagi xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan oʻtkazilgan ilmiy–amaliy anjumanda – "Kelajakdagi taʼlimning oʻziga xos xususiyatlari" ("Futures of Education") maʼruzasida ilk bor muomalaga kiritildi.[2]

Kompetensiyaviy taʼlim (competence-based education) AQSHda oʻtgan asrning 1970-yillarida shakllana boshladi. "Kompetensiya" termini 1965-yilda N. Xomskiy tomonidan AQSHning Massachusets universitetida til nazariyasi va amaliyoti (transformatsion grammatika) bilan bogʻliq holda taklif qilingan. Dastlab kompetensiya ona tilida muayyan lingvistik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan qobiliyat va layoqat maʼnolarini anglatar edi.[3]

Pedagogik, psixologik va metodik ilmiy–tadqiqotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari turlicha talqin qilingan boʻlsada, zamonaviy nuqtai nazardan dissertatsiyada mazkur tushunchalarni tavsifiga toʻxtalishga ehtiyoj bordek tuyuladi.

Tadqiqotlarda kompetensiya (competence) tushunchasi "qobiliyat, layoqat, omilkorlik" kabi maʼnolarni ifodalaydi. Kompetentlik (competens, competentis) tushunchasi esa "qobiliyatli, layoqatli, omilkor boʻlish, bilimdonlik" maʼnolarini ifodalaydi. Shuning uchun ushbu tushunchalarni talqin qilishda tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar mavjud.

---

1 Zimnyaya I.A. Osnovы pedagogicheskoy psixologii [Tekst] / I.A. Zimnyaya - M.: Logos, 2004. - 384 s. Levo, B.V. Metodologiya kompetentnostnogo podxoda v vыsshem obrazovanii [Tekst] / B.V. Avvo. // Elektronnыy nauchno-pedagogicheskiy jurnal "Emissia.offline", 2005.

2 Yermakov D. S. Kompetentnostnыy podxod v obrazovanii // Pedagogika, 2011.-№4.-S. 8–15

3 Xomskiy, N. Yazыk i problemы znaniya [Tekst] / N. Xomskiy // Vestnik MGU. Filologiya, 1995. -№ 4. - S. 130-1

Ta'lim jarayonida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari “muayyan bir fanni o'qitish jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, shuningdek, ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish qobiliyati hamda layoqatiga asoslangan holda tavsiflanadi”.[4]

Tadqiqotchilardan B. V. Avvo, I. A. Zimnyaya, D. A. Meshyeryakov, A. V. Xutorskoylar[5] kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini bir-biridan farqlagan holda tadqiq qilganlar. I. A. Zimnyaya talqiniga ko'ra, “kompetensiya” – bu o'quvchining ta'limiy tayyorgarligi uchun oldindan belgilangan maqsad va vazifalar hamda talablar doirasida tavsiflangan. “Kompetentlik” tushunchasi esa muayyan talab va vakolatlarni rivojlantirish darajasi, shaxsning muayyan xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan muvofiqlik o'lchovi sifatida talqin qilinadi.[6]

Dj. Ravenning “Zamonaviy jamiyatdagi kompetentlik” (2002) asarida “kompetentlik” tushunchasiga batafsil ta'rif beriladi. Mazkur tushuncha ilmiy–nazariy jihatdan tafsiflanadi. Dj. Ravenning fikriga ko'ra, kompetentlik – ko'plab tarkibiy tushunchalarni o'z ichiga olib, bir-biridan mustaqil tushunchalarni ifodalaydi. Mazkur fikr va mulohazalarda kompetentlik bilan bog'liq ba'zi bir tushunchalar ko'proq bilim sohasi bilan bog'liqligi ko'rsatilsa, boshqalari esa hissiy ma'nolarni ifodalashi ta'kidlab o'tilgan.[7]

A.V.Xutorskoy o'z tadqiqotlarida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari, ularning mohiyati haqida quydagilarni ta'kidlaydi[8]: “Kompetensiya – muayyan ta'limga tayyorgarlik, uni egallash darajalari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalasa, kompetentlik – muayyan shaxsning bir qobiliyat yoki layoqatni egallaganlik darajasi va sifati, egalik qilishi, tegishli vakolatga ega bo'lishi, unga munosabat va qo'llashidir” – deb ko'rsatilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishga oid ilmiy yondashuvlar o'rganildi. Metodologik asos sifatida lingvistik va lingvometodik nazariyalar tanlandi. Ma'lumotlar tahlili uchun ta'limga oid davlat hujjatlari, CEFR (Common European Framework of Reference) talablari, milliy o'quv dasturlar hamda ilg'or xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlariga tayanildi.

Tadqiqot jarayonida kontent-tahlil, taqqoslash, empirik kuzatuv va amaliyotga asoslangan metodlar qo'llanildi. Shuningdek, o'quvchilar bilan olib borilgan sinov darslari, interaktiv mashg'ulotlar tahlil qilinib, leksik kompetensiyani rivojlantirishda qanday yondashuvlar yuqori samaradorlikka olib kelishi amaliy jihatdan baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Lingvistik kompetensiya o'z navbatida til va nutqiy kompetensiyalardan tarkib topadi. Nutqiy kompetensiya esa muloqot jarayonida maqsadli tilning leksik birliklaridan funksional foydalanishni, matnlarni tinglab tushunish va o'qish qobiliyatlarining rivojlanishini ta'minlaydi. Og'zaki yoki yozma nutqda taqdim etilgan ma'lum bir mavzu bo'yicha izchil, asosli, mantiqiy tuzilgan bayonotlarda kerakli ma'lumotlarni uzatish, nutq va undan tashqari xatti–harakatlarni rejalashtirish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Sosiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish–istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sosiolingvistik kompetensiya ijtimoiy–madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlari hisoblangan

4 Bagramova, N.V. Lingvo-metodicheskiye osnovы obucheniya leksicheskoy storone ustnoy rechi na angliyskom yazыke kak vtorom inostrannom v pedagogicheskom vuze [Tekst]: dis. ... doktora ped. nauk / N.V. Bagramova. - SPb., 1993.-504 s. Baydenko, V.I. Bolonskiy prosess: strukturnaya reforma vыsshego obrazovaniya Yevropы [Tekst] / V.I. Baydenko. - 3-ye izd. - M.: Issledovatelskiy syentr problem kachestva podgotovki spesialistov, Rossiyskiy Novыy universitet, 2003. -128 s. Beliskaya, G.E. Sosialnaya kompetensiya lichnosti [Tekst] / G.E. Beliskaya. // Soznaniye lichnosti v krizisnom obщyestve, 1995. - S. 42-57. Berestova, L.I. Sosialno-psixologicheskaya kompetentnost kak professionalnaya xarakteristika rukovoditelya [Tekst]: dis. ... kand. psixol. nauk / L.I. Berestova. - M., 1994. - 208 s. Burlakov, M.A. Obucheniye aktivnomu vladeniyu inoyazыchnoy leksikoy v vuze [Tekst] / M. A. Burlakov. - Lvov: Viщa shk., 1988. – 130 s. Grishanova H.A. Kompetentnostnыy podxod v obuchenii vzroslыx. – M.: Issledovatelskiy syentr problem kachestva podgotovki spesialistov, 2004. – S.16. Derkach, A.A. Sosialnaya psixologiya [Tekst] / Pod red. A. N. Suxova, A. A. Derkacha. - M.: Akademiya, 2001. - 600 s. Kuzьmina, N.V. Professionalizm lichnosti prepodavatelya i mastera proizvodstvennogo obucheniya [Tekst] / N. V. Kuzьmina. – M.: Vыsshaya shkola, 1990.- 120 s. Markova, A.K. Psixologiya professionalizma [Tekst] / A. K. Markova. - M.: Mejdunarodnыy gumanitarnыy fond “Znaniye”, 1996. - 308 s. Myasiщyev, V.N., Bodalev, A.A. Psixologiya otnosheniy [Tekst]: izbr. psixol. trudы / V. N. Myasiщyev, A.A. Bodalev. – M.: Moyek, psixol.-sos. in-t, 2003.-398 s. Palferova, S.Sh. Proyektirovaniye texnologii kompetentnostno- oriyentirovannogo obucheniya dissiplinam yestestvennonauchnogo sikla studentov texnicheskix vuzov [Tekst]: dis. ... kand. ped. nauk / S.Sh. Palferova. - Tolyatti, 2003. - 252 s.

5 Zimnyaya I.A. Osnovы pedagogicheskoy psixologii [Tekst] / I.A. Zimnyaya - M.: Logos, 2004. - 384 s. Levo, B.V. Metodologiya kompetentnostnogo podxoda v vыsshem obrazovanii [Tekst] / B.V. Avvo. // Elektronnыy nauchno-pedagogicheskiy jurnal “Emissia. offline”, 2005. Meщyeryakov, D.A. Kompetentnost sub'yektov predprinimatelskoy deyatelnosti [Tekst]: dis. ... d-ra ekon. nauk D. A. Meщyeryakov. - Voronej, 1999.-259 s. Xutorskoy A.B. Klyuchevыye kompetensii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmы obrazovaniya//Narodnoye obrazovaniye. – 2003. – № 2. – S. 58-64.

6 Zimnyaya I.A. Osnovы pedagogicheskoy psixologii [Tekst] / I.A. Zimnyaya - M.: Logos, 2004. - 384 s.

7 Raven, Dj. Kompetentnost v sovremennom obщyestve: vыyavleniye, razvitiye i realizatsiya [Tekst] / Dj. Raven. - M.: Kogito-syentr, 2002. - 395 s.

8 Xutorskoy A.B. Klyuchevыye kompetensii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmы obrazovaniya//Narodnoye obrazovaniye. – 2003. – № 2. – S. 58-64.

– o‘zi yashayotgan mamlakatning urf–odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy–madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Sosiolingvistik kompetensiya o‘quvchining lingvistik va mintaqaviy bilimlari, ko‘nikma va malakalarini kengaytirishni ta’minlaydi. Tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning ijtimoiy–madaniy xususiyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, aloqa jarayonida ushbu ijtimoiy–madaniy bilimlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Pragmatik kompetensiya o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi ham pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritiladi. Mazkur kompetensiya og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotimizning asosiy mavzusi bilan bog‘liq til kompetensiyasi deganda, o‘quvchilar tomonidan tanlangan leksik mavzularni muayyan sohalarga muvofiq yangi grammatik va talaffuz birliklarini o‘zlashtirish, leksik, grammatik va talaffuz birliklaridan kommunikativ maqsadlarda foydalanish ko‘nikma va malakalarini o‘z ichiga oladi. Bu o‘quvchilar tomonidan tinglab tushunish va o‘qish kompetensiyalarini o‘zlashtirishda, shuningdek, gapirish va yozuvga oid lingvistik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni ta’minlaydi.

Tadqiqotchilardan N. V. Bagramova, D. V. Agapova, T. M. Balyxina, R. V. Drajan, N. N. Ignatovalar leksik kompetensiyani lingvistik kompetensiyaning tarkibiy qismi deb hisoblashadi. Leksik kompetensiya boshqa kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Oliy ta’limda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Buning sababi shundaki, leksikani o‘rgatish til materialining tarkibiy qismi hisoblangan grammatika va talaffuzni o‘rgatishda, shuningdek, nutq faoliyati turlari hisoblangan gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvni o‘rgatishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.[9]

Chet tillarni o‘zlashtirishda so‘z boyligining o‘rni va ahamiyati juda muhimdir, chunki aynan shu so‘z birikmasining nominativ funksiyasi tufayli fikrlash amalga oshiriladi. Mustahkam shakllangan leksik ko‘nikmalar chet tilda muvaffaqiyatli muloqot qilish shartlaridan biridir. Leksik–semantik me’yorlarning buzilishi o‘quvchilar nutqining kommunikativ jihatdan tushunarsiz bo‘lishiga, nutqiy muloqotda semantik, strukturaviy va funksional qiyinchiliklar va xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqotchilardan G. G. Machxelyana ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini baholab, ko‘pincha chet tilni o‘rganishda muloqot qiluvchilarning so‘z boyligining yetishmasligini ta’kidlaydi. Bunga asosiy sabab sifatida tadqiqotchi quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. O‘quvchilarda faol leksik zahiraning yetarli emasligi;
2. O‘quvchilarning leksik kompetensiyasining mustahkam rivojlanmaganligi;
3. Leksik birliklarni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan semantik, funksional va strukturaviy qiyinchiliklar.[10]

Shunisi e’tiborga loyiqki, yuqorida ko‘rsatilgan sabablar ham chet tillar ta’limida leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va minimal leksik birliklarning yetishmasligi muammolari bilan bog‘liqdir.

A. Leontyevning fikriga ko‘ra, dasturiy leksik materialni o‘rgatish va o‘zlashtirish chet tillarni o‘qitishda og‘zaki nutqning ilgari surilishi tamoyiliga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.[11]

Ushbu tamoyil til aspektlarini o‘rgatishda, ayniqsa chet til darslarida leksik material ustida ishlashga alohida e’tibor berilishi kerakligini nazarda tutadi. Bunda nutqiy muloqotda leksik materialni bilish va uni nutqda qo‘llash asosiy vazifani bajaradi. Nutqda leksik birliklarni idrok etish va ulardan foydalanish chet tilda fikrni shakllantirish, modellashtirish va loyihalash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘quvchilarning faol so‘z boyligining asosiy qismi chet tilni o‘rgatishning quyi va o‘rta bosqichlarida shakllanadi. Chet til o‘qitishning yuqori bosqichida esa leksik kompetensiya rivojlantiriladi. Tadqiqotimiz ob’ekti hisoblangan akademik litseylarda ham til o‘rganishda o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.[12]

Leksik kompetensiya – bu o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lib, leksik bilim, ko‘nikma va malakalar nutq faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Leksik

9 Bagramova, N.V. Lingvo-metodicheskiye osnovы obucheniya leksicheskoy storone ustnoy rechi na angliyskom yazыke kak vtorom inostrannom v pedagogicheskom vuze [Tekst]: dis. ... doktora ped. nauk / N.V. Bagramova. - SPb., 1993.-504 s. Balыxina, T.M. Struktura i soderjaniye professionalnoy kompetensii filologa: Metodologicheskiye problemы obucheniya russkomu yazыku [Tekst]: dis. ... doktora ped. nauk / T.M. Balыxina. - M., 2000. - 476 s

10 Machxelyan, G.G. Sovremennuyu angliyskuyu leksiku - v uchebnыy prosess! [Tekst] / G.G. Machxelyan. // Inostrannыye yazыki v shkole, 1999. - №2. -S. 13–17

11 Leontyev, A.A. Yazыk i rechevaya deyatelnost v obщyey i pedagogicheskoy psixologii [Tekst]: Izbrannыye psixologicheskiye trudы / A. A. Leontyev. - M.: Moskovskiy psixologo-sosialnыy institut, 2001.–448 s.

12 Pligin, A.A. Lichnostno-oriyentirovannoye obrazovaniye: istoriya i praktika [Tekst] / A.A. Pligin. -M., 2003. - 112 s

bilim, ko'nikma va malakalar nafaqat chet til leksik birliklari haqidagi lingvistik ma'lumotlar to'plami, balki so'z bilan harakat birligini bilish, ya'ni chet tilidagi so'z bilan muomala qilishning ma'lum shakllarini o'z ichiga oladi.[13]

Leksik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bosqichida o'zini o'zi boshqarish ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. O'quvchilar uchun o'z faoliyatining oraliq va yakuniy natijalarini bilish va ularni baholay olish muhimdir. Bu o'z–o'zini boshqarish va baholash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. O'z–o'zini boshqarish chet til o'rganish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, mavjud bo'lgan bilimlarni baholash va ularni boyitish yo'llarini tushunishga yordam beradi.

O'z–o'zini boshqarish deganda, biz shaxsning o'z holatlari, motivlari va harakatlarini ba'zi subyektiv norma va mezonlar bilan taqqoslash asosida ongli ravishda boshqarishini tushunamiz. O'z–o'zini nazorat qilish natijasida atrofdagi voqelik sharoitlariga javob berishning maqbul shakllarini ongli ravishda tanlash amalga oshiriladi.[14]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shakllantirish ularning lingvistik va sosiolingvistik bilimlarini, pragmatik va diskurs ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. Mustahkam leksik ko'nikmalar samarali muloqotning poydevorini tashkil etadi, til o'rgatish jarayonida esa leksik birliklarning funksional qo'llanilishi asosiy rol o'ynaydi. Leksik kompetensiyaning rivoji bevosita o'quvchining tilga oid bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatiga bog'liq.

**Takliflar:**

1. Ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan alohida modul yoki maxsus kurslar joriy etilishi lozim.
2. Dars jarayonlarida kontekstual, kommunikativ va tematik yondashuvlar ustuvorlik kasb etishi, real muloqotga yaqin vaziyatlarda so'z boyligini kengaytirish amaliyotga tatbiq etilishi zarur.
3. Zamonaviy texnologiyalar – elektron lug'atlar, mobil ilovalar va korpus lingvistikasi asosida yaratilgan platformalardan faol foydalanish tavsiya etiladi.
4. O'z-o'zini baholash va refleksiya usullari orqali o'quvchilarning leksik bilimlarini muntazam tahlil qilish va mustahkamlash mexanizmlari joriy qilinishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bakirova X. B. (2022). Leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va mutaxassislik leksik minimumini aniqlash, Integration of Science, Education and Practice. Ilmiy–metodik jurnal.
2. Hilola Bakirova (2022). Energetik talabalarga ingliz tilini o'qitishda ta'lim mazmuni va leksik minimumni aniqlash, O'zbekistonda xorijiy tillar jurnali.
3. Botiralievna B. X. (2022). Leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va mutaxassislik leksik minimumini aniqlash, BILIG.
4. Soliyeva S. T. qizi (2024). Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari lingvistik va nutqiy kompetensiyasini umumkasbiy fanlar majmuasi orqali rivojlantirish usullari, Namangan davlat universiteti Ilmiy xabarlari.
5. Nodiraxon Yusupova (2025). Ingliz tili talabalarida leksik–pragmatik kompetensiyani takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari jurnali.
6. Ikramova D. M. (2023). Huquqshunoslik kasbiga yo'naltirilgan leksik kompetensiya (ingliz tilshunosligi misolida), Oriens.
7. Sevara Abdurahmonova (2025). Leksik kompetensiyani baholashda Quizlet.com dasturi imkoniyatlari…, Journal.fledu.uz.
8. Z. M. Xazratova (2024). Chet tilini o'qishda leksik kompetensiyani shakllantirish usullari (konferensiya tezisi, Jahon tillari universiteti).
9. Jalolov B. B. va Akbarova M. A. (2024). Ingliz tili to'garaklarida yuqori sinf o'quvchilariga frazeologik birliklarni o'qitish texnologiyasi, Pedagogs jurnali.
10. Murodova Z. S. qizi (2022). Ingliz va o'zbek tillarining zamon shakllari va o'quvchilarning bu tilni o'rganishdagi qiyinchiliklari, xalqaro konferensiya.
11. Qobilova K. A. va Ashuraliyeva M. Yo. Q. (2025). O'zbek va ingliz tillaridagi leksik transformatsiyalar: taqqosiy tahlil, ilmiy jurnal.
12. Uzakova L. A. (2023). O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi, Qo'qon universiteti.
13. Uljayeva S. T. (2022). Yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishdagi qiyinchiliklar – global va mahalliy kontekst, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyasi.

13 Shamov, A.N. Prinsipы obucheniya leksicheskoy storone inoyazычnoy rechi [Tekst] / A.N. Shamov // Inostrannыye yazыki v shkole, 2009. - №4. - S. 2- 9

14 Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar [Tekst] / pod red. B.M. Bim-Bad. - M.: Nauchnoye izdatelstvo "Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya", 2002. - 528 s.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.